



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

ученый не успел завершить свою, как оказалось, последнюю монографию – расширенный вариант очерка «Маком и космос».

Она осталась без Заключения – части, которой он всегда придавал особое значение как выводящему на новый уровень обобщению. Однако есть надежда, что эта часть, возможно, осталась в черновых набросках. Наш, музыковедов, долг – постараться ее найти, восстановить и издать эту монографию как памятник воспевшему Маком и Космос ученому.

Список литературы

1. Jabborov A. O‘zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari. 2-to‘ldirilgan jildi / Mas’ul muharrir: H.Raximov. – T.: Musiqa, 2018. – 440 b.
2. Юсупова М.А., Рахимова З.И., Ибрагимов О.А. Суфийские традиции в искусстве Мавераннахра XVI–XVII вв. – Т.: San’at, 2010. – 208 с.
3. Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVII в.). – Т.: тип. № 1, 1946. – 87 с.
4. URL: [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A5%D0%B0%D0%BC%D1%81%D0%B0_\(%D0%9D%D0%B0%D0%B2%D0%BE%D0%B8\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A5%D0%B0%D0%BC%D1%81%D0%B0_(%D0%9D%D0%B0%D0%B2%D0%BE%D0%B8)) (дата обращения – 14.11.2023).
5. Карабаев У. Этнокультура (Традиционная народная культура). Учебное пособие. – Т.: Шарк, 2005. – 240 с.

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI - MILLIY MUSIQIY MEROS POYDEVORI

Azatgul TASHMATOVA,

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

“Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi professori, s.f.d.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalq cholg‘ularini davr talabiga moslashtirish, ya’ni takomillashtirish bo‘yicha ilk g‘oya asoschilari Usta Usmon Zufarov, Shorahim Shoumarov, Matyusuf Xarratov, usta Ro‘zimatxon Isaboyevlar tomonidan olib borilgan ilmiy-ijodiy tajribalar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: musiqa cholg‘ulari, dutor, tanbur, g‘ijjak, chang, rubob, o‘zbek xalq cholg‘u ansambllari.

O‘zbek xalqining bebaho musiqiy qadriyatlarini ifodalovchi vositalar qatorida milliy cholg‘ular alohida muhim o‘rin tutadi. Bejiz emaski, xilma-xil shakliy betakrorligi va naqshinkor bezaklari qatorida jozibador rang-barang ovoz tarovati hamda ijro imkoniyatlari bilan ham bu cholg‘ular jahon tamaddunida alohida mavqe kasb etib kelmoqda. Tarixdan ayonki, o‘zbek xalqining ma’naviy hayoti, turli bayramu kundalik turmush tarzi musiqa cholg‘ulari bilan chambarchas bog‘lanib ketgan.

Bu kabi ijobiy ko‘rinishlar hozirgi kunda ham davom etgani holda cholg‘u musiqasi yoshlar dunyoqarashining shakllanishida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, cholg‘u ijrochiligi san’ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg‘otib kelmoqda. Uning barcha o‘ziga xos

xususiyatlari va qirralarini o'rganish esa cholg'u ijrochiligi amaliyotidagi imkoniyatlar doirasini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, asrlar osha bizgacha yetib kelgan milliy musiqiy cholg'ular asosan xona sharoitida ijro etishga mo'ljallangan bo'lib, ularning tembr xususiyati ham aynan shunga muvofiq bo'lgan. Ularda ijro etish uchun mo'ljallangan asarlar salmog'ini esa milliy kuylar va mumtoz maqomlar tashkil etgan. XX asrga kelib davr taqozosi bilan mazkur cholg'ularda keng davralar va katta sahnalarda ijro etish zarurati yuzaga keldi. Shu asnoda xalq cholg'ularida ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirishga oid bir qator muayyan ishlar amalga oshirilgan. Zero, ushbu masalalar o'sha davrda o'z yechimini kutayotgan eng dolzarb muammolardan biriga aylangan edi.

O'zbekistonda 1920-yillardan boshlab turli tarkibdagi o'zbek xalq cholg'u ansambllari tashkil etila boshlandi. Shu jumladan, 1927-yili Toshkent radioeshittirish qo'mitasi huzurida Yunus Rajabiy rahbarligida o'n ikki kishidan iborat o'zbek xalq cholg'ulari ansambli o'z faoliyatini boshlaydi¹. Mazkur ansambl dastlabki 1927-1930 yillari asosan radio orqali beriladigan eshittirishlarni musiqiy "bezash"da faoliyat olib borgan. Asta-sekin ansambl ishtirokchilarining safi oshib, shunga mos tarzda ansambl dasturi ham rang-barang tus olishi barobarida, muayyan ijrochilik muammolari ham yuzaga kela boshlaydi. Mazkur muammolarni hal etishda o'zbek xalq cholg'ularini davr talabiga moslashtirish bo'yicha ilk g'oya asoschilarining xizmatlari beqiyosdir.

O'zbek xalq cholg'ularini zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirish bo'yicha ilk tajribalar XX asrning 20-yillari va 30-yillarining boshlariga to'g'ri keladi. Ushbu g'oya birinchi bo'lib toshkentlik mashhur xalq hofizi Shorahim Shoumarov, benazir sozgar Usta Usmon Zufarov, xorazmlik ustoz sozanda Matyusuf Xarratov, mohir sozanda va sozgar Usta Ro'zimatxon Isaboyevlar tomonidan amalga oshirilgan. Ularning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadlari – musiqa cholg'ularining ovoz jarangdorligini oshirish hamda xas pardalar yordamida tovush ko'lamini kengaytirishdan iborat edi². Natijada dutor, tanbur va g'ijjklarning bir necha tajribaviy turlari yaratiladi.



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, taniqli xalq hofizi va ustoz san'atkor **Shorahim Shoumarov** (1876-1958) o'zbek xalq cholg'ularini ijrochilik talab darajasiga moslashtirish tashabbusi bilan chiqqan ilk g'oya asoschilaridan biridir. U uzoq vaqt mobaynida mashhur xalq sozandalari R.Rajabiy, I.Ikromovlar bilan Toshkent radioeshittirish qo'mitasi huzuridagi xalq cholg'ulari ansambllida ishlagan. Ansamblda ishlash bilan birga SH.Shoumarov g'ijjak, dutor, tanbur kabi cholg'ularning tovush va tebranish sifatlarini yaxshilashga doir qizg'in izlanishlar olib borgan.

¹ Tashmatova A. Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg'ulari orkestri. Monografiya. T., 2015, 12 b.

² Вызго Т, Петросянц А. Узбекский оркестр народных инструментов. Т., 1962, с.19.

SH.Shoumarov cholg'ularni ijrochilik amaliyotiga moslashtirish borasida ko'pgina innovatsion taklif va tashabbuslar ko'rsatgan.

O'zbek xalq cholg'ularini davr talabiga moslashtirish jarayonida u aynan g'ijjklarning kosaxonasini har xil xomashyodan, ya'ni kokos yong'og'i, qovoq, mis va yog'ochdan yasagan. Mazkur cholg'ularga raqamlar qo'yilib, ularning ovoz tarovati bir sozanda tomonidan sahnada parda ortida jonli ijro orqali tinglab ko'rilgan hamda ularni bir-biriga qiyoslash natijasida kosasi yog'ochdan yasalgan cholg'u maqsadga muvofiq deb topilgan³.



kosasi kokos yong'og'i



qovoq



metaldan yasalgan g'ijjaklar

So'ngra yog'ochdan yasalgan g'ijjak kosasining shakli bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Natijada SH.Shoumarov tomonidan bir qator kosasi cho'zinchoq va orqa qismida quyosh tasviri tushirilgan, kosasi sakkiz qirrali, kosasi dumaloq hamda boshqa shakldagi turli xil g'ijjaklar yasaladi, ularning ovoz tarovati va tembr xususiyatlari tekshiriladi. So'ngra barcha tajribaviy, innovatsion cholg'ular orasidan kosasi tut daraxtidan yarim shar shaklida o'yma ravishda yasalgan g'ijjak tanlab olinadi, chunki undan taralayotgan ohang eng yoqimlisi bo'lib, aynan g'ijjak tembriga mos bo'lgan.



Shorahim Shoumarov tomonidan yasalgan, turli shakldagi yog'och kosali g'ijjaklar

³ Tashmatova A. Ijrochilik san'ati tarixi. T., 2017, 80 b.



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, musiqiy cholg‘ular bo‘yicha o‘tkazilgan innovatsion tajribalar asoschisi **Matyusuf Xarratov** (1889-1953) 1930-yillarda Toshkent radioeshittirish qo‘mitasi huzuridagi Yunus Rajabiy rahbarligidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari ansamblida ishlaydi. M.Xarratov birinchilardan bo‘lib changni takomillashtirish, ya’ni davr talabiga moslashtirish ustida izlanishlar olib boradi.

Zero, o‘sha paytdagi cholg‘u diapazonining kichikligi va diatonik tovushqatorga ega ekanligi unda turli xalqlarning asarlarini ijro etishga imkon bermas edi.

Changning noqulaylik tomonlaridan yana biri – har bir yangi asarni ijro etishdan oldin uni qaytadan (nayga qarab) sozlash kerak edi⁴. Izlanishlar natijasida M.Xarratov changning yuqori registrini qo‘shimcha torlar taqish hisobiga kengaytiradi. Takomillashtirilgan cholg‘uda u ansamblida ijro eta boshlaydi. M.Xarratovning ijodiy innovatsiyalari musiqa jamoatchiligi tomonidan maqullanadi.



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, benazir sozgar Usta **Usmon Zufarov** (1894-1981) 1943-yildan 1949-yilga qadar sohaviy ilmiy - tadqiqot eksperimental laboratoriyasida faoliyat olib borgan. Ushbu davr mobaynida u bir qator o‘zbek xalq cholg‘ularini zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Uning asosiy maqsadi - cholg‘ularning ovoz tarovatini kuchaytirish va xas pardalar yordamida diapazonini kengaytirishdan iborat edi. Natijada turli shakldagi ruboblar, kosasi ikki va

uch qavatdan iborat bo‘lgan dutorlar⁵ yaratilgan.



Tajribaviy ruboblar




Tajribaviy dutorlar

⁴ Shukurova F. Cholg‘u ijrochiligi tarixidan. T., 2005, 13 b.

⁵ Tashmatova A. Ijrochilik san’ati tarixi. T., 2017, 78-91 b.

U.Zufarov cholgʻularning tovush jarangdorligini kuchaytirish maqsadida dutor va tanbur qopqogʻining tagiga ikki tomonidan uch qatordan qoʻshimcha sado berib turuvchi torlar taqqan. Bu tajriba ijro paytida qopqoq tagidagi torlar aks-sado berishi natijasida tovush tembri yanada kuchayadi degan maqsadda amalga oshirilgan edi.



Usta Usmon Zufarov tomonidan yaratilgan anʼanaviy dutor va tanbur ⁶

Shuningdek, U.Zufarov tanbur dastasi va gʻijjak kosasining tagiga yogʻoch karnaylar oʻrnatgan. Bu ham boʻlsa ovoz tarovatini kuchaytirish muammosini hal etish maqsadida qilingan izlanishlardan biri edi. Mazkur cholgʻular oʻsha paytda ansambl tarkibida qoʻllanilgan, lekin bizgacha yetib kelmagan. Ular oʻz shakliga nisbatan ancha kattalashtirilgan va ansambl ovoz tarovatini boyitishga xizmat qilgan.

U.Zufarov birinchilardan boʻlib, Yunus Rajabiy buyurtmasiga asosan Toshkent radioeshittirish qoʻmitasi huzuridagi 1927 yilda tashkil etilgan 12 kishidan iborat oʻzbek xalq cholgʻulari ansambli uchun past registrli cholgʻular, yaʼni “katta dutor”, “katta tanbur” va “katta gʻijjak”larning bir necha turlarini yasaydi. Mazkur cholgʻular 1934-1936 yillar davomida Y.Rajabiy rahbarligidagi mazkur ansambl⁷ hamda oʻzbek davlat filarmoniyasi qoshida Toʻxtasin Jalilov rahbarligidagi 1936 yilda tashkil etilgan, 98 kishidan iborat unison orkestr tarkibida qoʻllaniladi⁸.

⁶ Liviye A. Oʻzbek milliy cholgʻusozlik tarixi. T., 2005, 55 b.

⁷ Tashmatova A. Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholgʻulari orkestri, Monografiya. 13-b.

⁸ Вызго Т, Петросянц А. Узбекский оркестр народных инструментов, с.19.



Usta Usmon Zufarov tomonidan yaratilgan katta dutor va katta g'ijjaklar.

Usta Usmon Zufarovning ishlari milliy musiqiy sozlarimizning sifat darajasini oshirishga katta yordam berdi va hozirgi kunga qadar bu cholg'ular barcha an'anaviy cholg'ular yasaydigan sozgar ustalarga namuna (etalon) sifatida xizmat qilmoqda. Ustaning noyob va betakror cholg'ularida nafaqat O'zbekiston, balki xorijiy mamlakatlarning mutaxassislari va musiqa ixlosmandlari ham sevib ijro etmoqdalar. Usmon Zufarov tomonidan yaratilgan dutorlar hamda tanburlar boshqa ustalarning ishlaridan yog'och o'ymakorlik san'ati orqali cholg'u bo'g'ziga (dasta va kosani birlashtiruvchi qism) gul va bulbul siymosi aks ettirilganligi bilan ajralib turadi. Bu esa faqatgina ustaning o'ziga xos bo'lgan ramziy belgi hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ilk g'oya asoschilari tomonidan o'zbek xalq cholg'ularining davr talabiga moslashtirish, ya'ni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirgan tajribalari kelgusi ilmiy tadqiqot ishlari uchun zamin yaratdi. Shuningdek, o'zbek milliy musiqa san'atini rivojlantirishga xizmat qildi va ularning ayrim ijod maxsullari hozirgi kunga qadar o'z qiymatini yo'qotmay, amaliyotda qo'llanilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. Tashmatova A. Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg'ulari orkestri. *Monografiya*. – T., 2015.
2. Вызго Т., Петросянц А. Узбекский оркестр народных инструментов. Т., 1962.
3. Tashmatova A. Ijrochilik san'ati tarixi. – T., 2017.
4. Shukurova F. Cholg'u ijrochiligi tarixidan. – T., 2005.
5. Liviye A. O'zbek milliy cholg'usozlik tarixi. – T., 2005.